


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**EXPLANATORY DICTIONARIES OF DARI LANGUAGE CREATED IN INDIA*****Khilola Uktamova****Senior lecture, PhD**Tashkent State University of Uzbek language and literature**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: explanatory dictionaries, lexicography, Dari language, grammar, phonetics, word groups, noun, verb.

Received: 15.05.24**Accepted:** 17.05.24**Published:** 19.05.24

Abstract: In the article, explanatory dictionaries with notes on Dari language grammar are systematically studied. From this it can be seen that the study of the Dari language was carried out not only in Movarounnahr and Khurasan, but also in India. Authors of dictionaries covered various aspects of Dari linguistics. Through this, it is possible to draw a conclusion about the stages of the history of Dari linguistics.

HINDISTONDA YARATILGAN DARIY TILIGA OID IZOHLI LUG‘ATLAR***Xilola Uktamova****katta o‘qituvchi, PhD**Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: izohli lug‘atlar, lug‘atshunoslik, dariy tili, grammatika, fonetika, so‘z turkumlari, ot, fe‘l.

Annotatsiya: Maqolada dariy tili grammatikasiga oid qaydlar yozilgan izohli lug‘atlar tizimli ravishda o‘rganilgan. Bundan ko‘rinadiki, dariy tilini o‘rganish nafaqat Movarounnahr va Xurosonda, balki Xindistonda ham amalga oshirilgan. Lug‘atlar mualliflari dariy tilshunosligining turli jabhalarini yoritishgan. Bu orqali dariy tilshunosligining tarixi qanday bosqichlarni bosib o‘tgan haqida xulosa chiqarish mumkin.

ТОЛКОВЫЕ СЛОВАРИ ЯЗЫКА ДАРИ, СОЗДАНИЕ В ИНДИИ***Хилола Уктамова****Старший преподаватель, PhD**Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы**Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: толковые словари, лексикография, язык дари, грамматика, фонетика, части речи, существительное, глагол.

Аннотация: В статье систематически изучаются толковые словари с примечаниями по грамматике языка дари. Из этого видно, что изучение языка дари проводилось не только в Моваруннахре и Хорасане, но и в Индии. Авторы словарей освещали различные аспекты языкознания дари. Благодаря этому можно сделать вывод об этапах истории дарийского языкознания.

KIRISH

Eroniy tillarning rivojlanish davrida Hindistonning ba'zi shimoliy viloyatlari Tohiriylar, Safaviylar kabi sulolalar tomonidan bosib olinishi natijasida dariy tilining qamrovi kengaydi. G'o'riylar sulolasi Shimoliy Hindiston hududlarini bosib olgandan keyin (XII asr) dariy tili dominant tilga aylandi, XIII asrga kelib rasmiy saroy va davlat tili maqomini oldi.

ASOSIY QISM

Hindiston zaminida dariy lug'atchiligining rivoji XII asrdan boshlanadi. S. Nafisiyning fikricha, jami lug'atlarning 80 foizi aynan Hindiston hududida yaratilgan [22. b.10]. Olimlar tomonidan Hindistonda bunchalik ko'p lug'atlar tuzilishining sabablari turlicha izohlanadi. S. Nafisiy bunga sabab qilib, hindlarning aloqa va davlat tilini o'rnatish uchun qo'shimcha materiallarga bo'lgan ehtiyojining ortishini ko'rsatsa, M.T. Bahor va Z. Safo Boburiylar imperiyasi davrida Hindistonda Jaloliddin Akbarshohning vaziri Abulfayzning dariy tili rivojiga katta ahamiyat qaratganini tas'kidlashadi. J. Humoyun esa, hindlarning dariy tiliga bo'lgan qiziqishining ortishi, deb qayd qiladi [22. b.31]. Bizningcha, Boburiylar sulolasi Hindistonni bosib olgunga qadar ham dariy tilining ilm va adabiyot tili sifatida shuhrat qozongani, ilmiy va she'riy asarlarni o'qish uchun mazkur tilni o'rganish zarurati ortgani sabab bo'lgan. Keyinchalik Boburiylar imperiyasida dariy tilining saroy va adabiyot tili sifatida e'tirof etilishi mazkur jarayonning keng tus olishiga olib keldi.

Hindiston hududida dariy tili grammatikasiga oid elementlarni o'zida jamlagan ilk lug'atlardan biri Abu Jafar Bayhaqiyning XI asrda tuzilgan "تاج المصادر" *Tâj ul-masâder* ("Masdarlar toji") lug'atidir. Ushbu lug'atda morfologiyaga doir bilimlar qayd etilgan. Xususan, dariy tilida arabcha ot so'z turkumiga xos so'zlarning yordamchi fe'llar bilan birga qo'llanishi haqida ma'lumotlar berilgan [13. b.72].

1433-yilda Badriddin Ibrohim tomonidan tuzilgan "فرهنگ زفانگويآ و جهانپويآ" *Farhang-e zafângôyâ wa jahângôyâ* ("Gapirtiradigan va dunyoni o'rgatadigan lug'at") lug'ati dariy va pahlaviy tilidagi fe'llar izohini jamlagani bilan ahamiyatlidir. 1964-yilgacha mazkur lug'at saqlanib qolmagan kitoblar qatoriga kirar edi. Ayni shu yilda S.I. Baevskiy Osiyo xalqlari

institutining qo‘lyozmalar fondi xazinasidan lug‘atning yagona nusxasini topishga mavaffaq bo‘ldi. Qo‘lyozma nusxasi XVII asrga oid. Olim lug‘atni har tomonlama tadqiq etishga urindi. S.I. Baevskiyning yozishicha, lug‘at 7 qism (baxsh)dan iborat: birinchi baxshda pahlaviy va klassik dariy tilidagi sodda so‘zlar izohi berilgan, bunday so‘zlar miqdor jihatidan eng ko‘p; ikkinchi baxshda sof dariycha ikki o‘zakli so‘zlar; uchinchi baxshda pahlaviy va dariy tilidagi harakat nomi, ya‘ni masdarlar, to‘rtinchi baxshda dariy tilida uchraydigan arabcha so‘zlar; beshinchi baxshda arabcha, nabataycha va dariycha har xil so‘zlar; oltinchi baxshda rumincha, shuningdek, yunoncha, lotincha so‘zlar; ettinchi baxshda turkiycha so‘zlar izohi berilgan [3. b.68-69].

1473-1474-yillarda Ibrohim Qavomiddin Foruqiyning “شرفنامه منیری یا فرهنگ ابراهیمی” “*Šarafnâma-ye Moniri yâ farhang-e Ibrâhimi* (“Muniriy sharafnomasi yo Ibrohim lug‘ati”) lug‘ati yaratilgan. Mazkur lug‘at 536 sahifadan iborat bo‘lib, 8000 dan ortiq so‘zni o‘zida jamlagan [9. b.6]. Muallif lug‘atni Allohga hamd va payg‘ambarlarga salovat aytishdan boshlab, kitobni 4 qismga bo‘lishni ma‘qul ko‘rgan: lug‘at, adabiy asarlar, tarix ilmiga oid kitoblar, tibbiyot ilmiga doir manbalar. Lug‘atning “باب حروف المعانی و القوائد” *Bâb-e horuf-ul-ma‘âni wa al-qawâid* bobida dariy tili alifbosi va grammatikasi haqida qaydlar mavjud. Ayniqsa, kichraytirish-erkalash (چی-çi), ko‘plik qo‘shimchalarining (ها- *hâ*, آن- *ân*) qo‘llanilish xususiyatlari, fe‘l shakllari borasida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan [19.]. Mazkur lug‘at nomi “فرهنگ سروری” *Farhang-e Sururi* (“Sururiy lug‘ati”) va “فرهنگ جهانگیری” *Farhang-e Jahângiri* (“Jahongir lug‘ati”) kabi lug‘atlarda zikr etilgan. “فرهنگ نظام” *Farhang-e Nezâm* (“Nizom lug‘ati”) muallifi Sayyid Muhammadali Doil-ul-Islom mazkur lug‘at klassik dariy tilida tuzilganini qayd etgan:

سرپا که مملو ز در دری است شرفنامه احمد منیری است

[Boshdan oyoq dariychadir

U Ahmad Muniriyning Sharafnomasidir.] [19. b.20]

A.A. Dehxudo ham lug‘atida so‘zlarning izohini dalillashda mazkur lug‘atni manba sifatida ko‘rsatadi [19. b.21]. Sh.R. Rustamov lug‘at bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasida uning tavsifiy bayonini keltirgan [14.].

1592-yilda Allohdo Fayzi ibn Asadululamo Alisher as-Sarhindiy tomonidan Hindistonda tuzilgan “مدار الافاضل” *Madâr-ul-afâzel* (“Olimlar davrasi”) izohli lug‘ati 28 bob, 685 betdan iborat [9. b.6]. Muallif dariy tili izohida bu tilni fors tili deya talqin qiladi. Unda dariy tilida mavjud ayrim frazeologik birikmalar, ularning turlari haqida qaydlar yozilgan [24.].

1608-yilda asli sherozlik Husayn Injuning “فرهنگ جهانگیری” *Farhang-e Jahângiri* (“Jahongir lug‘ati”) lug‘atida (Hindiston) dariy tili fonetikasi, grammatikasi va so‘zlar etimologiyasi masalalari birmuncha to‘laroq yoritilgan. Bundan tashqari, orfoepiya va orfografiya haqida ham nazariy fikrlar bildirilgan [14. b.124-129]. Husayn Inju dariy tili me‘yoriy grammatikasining asoschisi hisoblanadi. Ushbu kitobda 7000 dan ziyod so‘z yig‘ilgan. Muallif lug‘at tuzish uchun

30 yil umrini sarflagan va 40 dan ortiq leksikografik manbadan foydalangan [11. b.194]. Abdurrashid ibn Abdulgʻafur al-Husayniy al-Madaniy at-Tataviy “فرهنگ رشیدی” *Farhang-e Rašidi* (“Rashidiy lugʻati”) nomli asarida mazkur lugʻatga yuqori baho berib, uning oʻz davri uchun eng mukammal lugʻat ekanligini eʼtirof etgan holda, lugʻatda ayrim kamchiliklarga yoʻl qoʻyilganini ham qayd etadi:

1. Farhang muallifi soʻzlarni izohlashda koʻp soʻzlarni ishlatgan.
2. Baʼzi soʻzlarda tilni toʻgʻrilash, eʼrob qoidasini tushuntirish va uslubni tahrir qilish lozim.
3. Dariycha soʻzlar orasida arabcha va turkiycha soʻzlar berilgan.
4. Baʼzi soʻzlar xato oʻqilgan va bir qancha soʻzlar koʻp joyda takrorlangan [25. b.12].

Mazkur lugʻatning boshqa lugʻatlardan farqi uning tuzilishidadir. “لغت فرس” lugʻatida soʻzlar soʻnggi harfiga koʻra, “شرفنامه منیری یا فرهنگ ابراهیمی” *Šarafnâma-ye Moniri yâ farhang-e Ibrâhimi* (“Muniri sharafnomasi yo Ibrohim lugʻati”) va “لغتنامه تحفه الاحباب” *Luğatnâma-ye tohfât-ol-ahbâb* (“Doʻstlar sovgʻasi lugʻati”) lugʻatlarida birinchi va soʻnggi harfiga koʻra ajratilgan boʻlsa, bu lugʻatda soʻzlar birinchi va ikkinchi harflar asosida ajratilgan. Bunday usul Husayn Injuga qadar ishlatilmagan. X. Raupov mazkur lugʻatni leksikografik jihatdan tadqiq etib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [12. b.30].

Burhon taxallusi bilan mashhur boʻlgan Muhammad Husayn ibn Xalaf Tabriziy tomonidan 1647–1652-yillarda yaratilgan “برهان قاطع” *Borhân-e qâteʻ* (“Qatʻiy dalil”) lugʻati (Hindiston, Haydarobod) 20 000 soʻzni oʻz ichiga oladi. Muallifning maqsadi dariy tilining izohli lugʻatini tuzish boʻlganiga qaramasdan, unda koʻproq arabcha soʻzlar uchraydi. Lugʻat soʻzboshisida nafaqat fonetika, leksika va grammatikaning anʼanaviy masalalari, balki bir qator sotsiolingvistik muammolarga ham diqqat qilingan [20.].

1647-yilda Hindistonning Tata shahrida tugʻilgan Abdurrashid ibn Abdulgʻafur al-Husayniy al-Madaniy at-Tataviyning “فرهنگ رشیدی” *Farhang-e Rašidi* (“Rashidiy lugʻati”) lugʻatida (Hindiston) 7000 dan ortiq soʻz jamlangan boʻlib, muqadimma, 24 fasl va xotimadan iborat. Uni tuzishda “فرهنگ سروری” *Farhang-e Sururi* (“Sururiy lugʻati”) va “فرهنگ جهانگیری” lugʻatlari asosiy manba boʻlib xizmat qilgan. Lugʻatda soʻzlar harakatlarsiz berilgan. Soʻzlarni toʻgʻri oʻqish uchun qoidalar keltirilgan. Bu esa dariy tili fonetikasi haqidagi qaydlar hisoblanadi [21. b.253]. Mazkur lugʻat X. Axadov tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

Sirojiddin Alixon Orzu tomonidan 1734-yilda Hindistonda yaratilgan “چراغ هدایت” *Čerâğ-e hedâyat* (“Hidoyat chirogʻi”) lugʻati forsiy zabon xalqlarning moʻtabar manbalaridan biridir. Lugʻatda oʻsha davrga oid iboralar, ularning maʼnolari va turlari haqida qimmatli maʼlumotlar berilgan. Shuning uchun ham baʼzi olimlar bu lugʻatni “tarixiy lugʻat” deb atashgan. X. Nazariyning yozishigacha, unda lugʻatshunoslik tarixi ham qisqacha bayon etilgan. Mazkur lugʻatda 2029 ta soʻz va iboralar mavjud. Shuningdek, iboralarning yasaliş turlari haqida

ham maълumotlar bor. Unda 433 ta (sintaktik jihatdan) mustaqil iboralar, turli usullarda yasalgan 127 ta so‘zlarning taъrifi keltirilgan. Ort va old qo‘shimchalar misollar orqali tushuntirilgan. -y, -a, -an, -bân, -gar, gâh singari ort va bar-, be-, nâ-, ham- kabi old qo‘shimchalar qayd qilingan [10. b.11]. N.D. Rahmonzodaning qayd etishicha, bu lug‘at “سراج اللغات” *Serâj ol-luğât* (“Lug‘atlar shamchirog‘i”) lug‘atining davomi bo‘lib, uning muallifi Hindiston, Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon va Turkiyaning 186 ta shoir va adiblarining ijod namunalaridan, qolaversa, 37 ta ilmiy, badiiy va leksikografik asarlardan foydalangan [13. b. 80]. Lug‘atda berilgan so‘z birikmalarini uch guruhga bo‘lish mumkin: 1) ismiy so‘z birikmalar; 2) fe‘liy so‘z birikmalar; 3) metaforalar. Shuningdek, lug‘at 1751 ta turli frazeologik birikma va idiomalarni jamlagani bilan ham qimmatlidir [13. b. 34]. Lug‘at D. Bahriddinov [4, 5] tomonidan keng tadqiq etilgan.

Lola Tik Chand Bahorning 1739-yilda tuzilgan “بهار عجم” *Bahâr-e ‘Ajam* (“Ajam bahori”) lug‘ati hajman katta lug‘atlardan hisoblanadi. Muallif lug‘at tuzish ishlarini 20 yil davomida olib borgan. Ushbu lug‘atni o‘rganishda A. Sanginov tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot [15] nihoyatda ahamiyatlidir. Lug‘atning ettita nashri mavjud. F.N. Mirzoyorovning qayd etishicha, lug‘atda mahsuldor so‘z yasovchi feъл negizlari berilgan (masalan, دلخواه *delxâh*, خیرخواه *xayrxâh*, هواخواه *hawâxâh* va b.). Otdan yasalgan baъzi feълar ham shu bo‘limga kiritilgan. Lug‘at muallifi quyidagi ettita fonetik turni ko‘rsatadi: muhaffaf, mushabba, muarrab, mubaddal, qalb, imola, mazid-ul-ilayh [9. b.12].

“هفت قلزم” *Haft qolzum* (“Etti dengiz”) lug‘ati Haydarshoh G‘oziyning eng mashhur asari hisoblanadi. Kitob birinchi marta 1823-yilda Sulton Laknav nashriyoti tomonidan “Utakbar” bosmaxonasida uch jildda nashr etilgan. Uning to‘liq matni 1890-yilda shu nashriyotda chop etilgan. X. Nazariyning ta’kidlashicha, oltita qulzum (dengiz)da lug‘at, ettinchi qulzumda morfologiya, poetika, metrika va qofiya kabi sohalar haqida foydali maълumotlar berilgan. Ettinchi qulzum olti dengizdan (bahr) iborat va bu dengizlar etti qirg‘oq (sohil), 28 parom (mu’bar), 276 qayiq (zavrak), 13 daryo (poyob), 7 ko‘lmak (obgir), 30 jihoz (jihoz), 30 to‘lqin (mavja) va 24 kema (safina)larga bo‘lingan. Shuningdek, bu asarda alifbo va izofiy birikmalar haqida foydali ma’lumotlar keltirilgan [10. b.39]. N.D. Rahmonzodaning fikriga ko‘ra, lug‘atda fonologiya, orfografiya, etimologiya haqida ham ma’lumotlar bor. Ushbu ma’lumotlarning barchasi amaliy xarakterga ega. Shuningdek, kammahsul grammatik shakllarning izohi illyustrativ materiallar orqali ochilgan [13. b.32].

“غیاث اللغت” *Ġiyâs-ol-luğat* (“G‘iyos lug‘ati”) lug‘ati G‘iyosiddin Muhammad Rompuriy tomonidan 1827-yili Hindistonda yaratilgan. Lug‘atning kirish qismida dariy tilining grammatikasi haqida maълumotlar bor. Dariy tilining fonologik tizimi, morfologiya va sintaksisga oid bir qancha masalalar lug‘atning asosiy qismida keltirilgan. Mazkur lug‘atda to‘rtta asosiy old ko‘makchi – az, be, ba, bâ haqida batafsil maълumot berilgan. Bundan tashqari, lug‘atda lingvistik

terminlar izohini ham ko‘rish mumkin [23]. Lingvistik terminlarni qo‘llash borasida G‘.M. Rompuriy lug‘at tuzgan olimlar ichida etakchilik qilgan. A. Vaxidov lug‘atdagi so‘zlarning tuzilishiga va ma‘nosiga ko‘ra tadqiq etgan [7. b. 34], F. Djalolova lug‘at muallifining tilshunoslikka oid fikrlarini tahlil qilgan [8], A. Ahadov esa lug‘atni leksikografik jihatdan o‘rgangan [2].

XULOSA

Maqolada Hindistonda yaratilgan 12 ta lug‘at ko‘rib chiqildi: “شرفنامه منیری یا فرهنگ ابراهیمی” *Šarafnâma-ye Moniri yâ farhang-e Ibrâhimi*, “مدار الافاضل” *Madâr-ul-afâzel*, “تاج المصادر” *Tâj ul-masâder*, “فرهنگ زفانگویا و جهانپویا” *Farhang-e zafângôyâ wa jahângôyâ*, “تحفه الاحباب” *Tohfât-ol-ahbâb*, “فرهنگ رشیدی” *Farhang-e Jahângiri*, “فرهنگ جهانگیری” *Borhân-e qâte*, “فرهنگ رشیدی” *Farhang-e Rašidi*, “غیاس اللغت” *Ĝiyâs-ol-luġat*, “چراغ هدایت” *Ĉerâĝ-e hedâyat*, “بهار عجم” *Bahâr-e ‘ajam*, “هفت قلزوم” *Haft qolzum*.

“فرهنگ” “تاج المصادر”, “مدار الافاضل”, “لغتنامه تحفه الاحباب” lug‘atida dariy tili fonologiyasi, “فرهنگ زفانگویا و جهانپویا” lug‘atlarida morfologiya va leksikologiya masalalari yoritilgan bo‘lsa, “هفت قلزوم”, “بهار عجم”, “چراغ هدایت”, “غیاس اللغت”, “فرهنگ رشیدی”, “فرهنگ جهانگیری”, “جهانگیری” kabi lug‘atlarda ham fonologiya, ham morfologiya va sintaksis masalalari bayoni keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ахадов Х. “Фарханги Рашиди” как лексикографический труд: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1971.
2. Аҳадов А. “Ғиёс-ул-луғот”. Мухаммад Ғиёсиддин ва мақоми он дар фарханнигории тоҷикӣ-форсӣ. – Самарқанд, 2012.
3. Баевский С.И. Ранняя персидская лексикография. – М.: Наука, 1989.
4. Бахриддинов Д. “Чароғи хидоят” Сироджиддина Алихона Орзу и его отношение к современному таджикскому языку: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1981.
5. Бахриддинов Д. Некоторые особенности “Чароғи Хидоят” Сироджиддина Алихана Орзу. – Душанбе, 1977.
6. Бахриддинов Д. “Чароғи хидоят” Орзу и таджикско-персидский язык. – Душанбе, 1992.
7. Вахидов А. Структурно-семантическая характеристика лексики “Ғиёс ил-луғот”: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1975.
8. Джалолова Ф. Языковедческие воззрения в “Гияс-ал-луғоте” Мухаммада Гиясуддина Ромпури: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Худжанд, 2011.
9. Мирзоёров Ф.Н. Грамматические комментарии в таджикских толковых словарях XVI-XIX вв.: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2011.

10. Назари Х. Формирование и особенности составления грамматики персидско-дари языка в Афганистане: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2018.
11. Пейсиков Л. Лексикология современного персидского языка. – Москва, 1979.
12. Раупов Х. “Фарханги Джахонгири” как источник таджикско-персидской лексикографии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1966. – 30 с.
13. Рахмонзода Н.Д. Лексические и лексикографические особенности первых толковых словарей в Северной Индии: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2021.
14. Рустамов Ш.Р. “Шарафномаи Мунярӣ – фарҳанги тафсирии садаи XV: Рис. ... номз. илми филол. – Хучанд, 2004.
15. Сангинов А. “Бахор-и Ажам” и его лексикографическая характеристика: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 1973.
16. Уктамова Х. “فرهنگ جهانگیری” “Жаҳонгир луғати” луғатининг яратилиш омиллари. // “Марказий Осиёда лексикология ва лексикография: анъаналар ва ҳозирги замон илмий мактаблари” Республика илмий конференцияси (Илмий мақолалар тўплами) – Тошкент, 2019. – Б. 124-129.
17. Уктамова, Х. (2019). Farhang-e Jahângiri («Словарь Джахангира»)-язык фарси-йе дари как грамматический труд. *Востоковедения*, 3(3), 102-110.
18. Уктамова, Х. (2022). ФОРСИ-ЙЕ ДАРИЙ ТИЛИГА ОИД ИЗОҲЛИ ЛУҒАТЛАРДАГИ ГРАММАТИК ҚАЙДЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ. *Research Focus*, 1(1), 77-81.
19. ابراهيم قوام فاروقى. شرفنامه منيرى يا فرهنگ ابراهيمى. – تهران، ۱۳۸۵.
20. حسين اينجو. فرهنگ جهانگیری. جلد اول. – مشهد، ۱۳۵۱.
21. سيد ابدالرشيد التتوى. فرهنگ رشيدى. جلد اول. – تهران، ۱۸۳۵.
22. على اكبر ده خدا. لغتنامه. – تهران، ۱۳۲۵.
23. غياث الدين محمد رامپورى. غياث اللغات. جلد نخست. – تهران، ۱۲۴۲.
24. الله داد فيضى سرهندى. مدار الافاضل. جلد دوم. – لاهور، ۱۳۴۵.
25. محمد عباسى. فرهنگ رشيدى. بتحقيق و تصريح. – تهران، ۱۸۳۵.